

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

KAMALETDINOV SHOXRUX SHUXRATOVICH

**TEMIR YO‘L TRANSPORTI TEZKOR BOSHQARISH TIZIMLARINING
AXBOROT-TAHLILY JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH**

05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the abstract Doctoral (DSc) Dissertation

Kamaletdinov Shoxrux Shuxratovich

Temir yo‘l transporti tezkor boshqarish tizimlarining axborot-tahliliy jarayonlarini aqamlashtirish..... 3

Камалетдинов Шохрух Шухратович

Цифровизация информационно-аналитических процессов систем оперативного управления перевозками железнодорожного транспорта..... 29

Kamaletdinov Shokhrux Shukhratovich

Digitalization of information and analytical processes of operative management systems of railway transport..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 59

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

KAMALETDINOV SHOXRUX SHUXRATOVICH

**TEMIR YO‘L TRANSPORTI TEZKOR BOSHQARISH TIZIMLARINING
AXBOROT-TAHLILY JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH**

05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/T682 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Aripov Nazirjan Mukaramovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nurmuxamedov Tolaniddin Ramziddinovich
texnika fanlari doktori, professor

Muxametjanova Ayjan Vesmovna
texnika fanlari doktori, professor

Raxmangulov Aleksandr Nelyevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi PhD.15/31.08.2022.T.73.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil 24-oktabr soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (186- raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 11-oktabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 10-oktabrdagi 49-raqamli reyestr bayonnomasi).



J.F. Kurbanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
t.f.d. (DSc), professor

Sh.M. Suyunbayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d. (DSc), professor

D.X. Baratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d. (DSc), professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda temir yo‘l transportini boshqarish tizimlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Jahon miqyosida, “... raqamli temir yo‘l bozori 2027-yilda o‘rtacha 9,9% yillik o‘sish sur‘ati bilan 77,2 milliard dollarga yetishini...”¹ e‘tiborga olib, ushbu tendensiya tashishlarni boshqarish bo‘yicha yanada samarali va tejamkor yechimlarga talab ortib borayotgani bilan izohlanadi, bu esa samarali transport tizimini shakllantirish uchun tezkor boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan tashishlarni tezkor boshqarish va optimal rejalashtirish uchun harakatlanuvchi tarkibni avtomatik monitoringini rivojlantirish, tashish jarayoni ma‘lumotlarini yig‘ishda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida ma‘lumotlarni qayta ishlash texnologik jarayonining matematik modellarini ishlab chiqish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda tashishlarni tashkil etish tizimlarini raqamlashtirishga, zamonaviy texnologiyalar asosida qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirishga, harakatlanuvchi tarkib parkini boshqarish tizimlarini va tashish jarayonlarini rejalashtirish tizimlarini takomillashtirishga, qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda ustuvor hisoblangan qator tadqiqotlarni, jumladan, ilm-fan yutuqlaridan foydalangan holda simsiz texnologiyalarni qo‘llash orqali tashishlarni tezkor boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish

bo‘yicha bir qator tadqiqotlarni o‘tkazish zarur. Shu bilan birga, tashishlarni tezkor boshqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik monitoring qilish tizimining texnik va funksional ta‘minoti yechimlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikada temir yo‘l transportida tashishni boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlarni rejalashtirishni tashkil etishning ilmiy asoslangan usullarini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va bu borada muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli qarorida, jumladan, “biznes jarayonlarini raqamlashtirish..., boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish..., temir yo‘l sohasini transformatsiya qilish va raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, xizmatlar ko‘rsatish jarayonining uzluksizligi, sifatligi, xavfsizligi, barqarorligi va ishonchliligini ta‘minlash...”² bo‘yicha muhim maqsadlar belgilab berilgan. Ushbu maqsadlarga erishishda zamonaviy texnologiyalar asosida tashish jarayoni ma‘lumotlarini yig‘ish va qayta ishlash usullarini rivojlantirish hamda tashish jarayonini monitoring qilishning avtomatik tizimini yaratish bo‘yicha ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish zarur vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

¹ <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/digital-railway-global-market-report>

² <https://lex.uz/uz/docs/-6631602>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4422-sonli, 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli, 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnikasini rivojlantirishning IV “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish ” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Temir yo‘l transportida tashishlarni tashkil etish va boshqarishga qaratilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar qator mamlakatlarning yetakchi ilmiy markazlari, universitet va ilmiy-tadqiqot institutlarida, jumladan: Illinoys da Urbana-Champaign (AQSh), Massachusetts Institute of Technology (AQSh), University of Melbourne (Avstraliya), Delft University of Technology (Niderlandiya), Beijing Jiaotong University (Xitoy), University of Tokyo (Yaponiya), Swiss Federal Institute of Technology Zurich (Shveytsariya), Tsinghua University (Xitoy), Rossiya transport universiteti (Rossiya), Peterburg davlat temir yo‘l universiteti (Rossiya), Technical University of Munich (Germaniya) va boshqalarda keng ko‘lamda olib borilmoqda.

Jahonda temir yo‘l transportida tashishlarni boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy natijalarga erishilgan. Xususan transportni boshqarish uchun yagona raqamli infratuzilma yaratilgan (Yevropa Ittifoqi), intellektual temir yo‘llar tarmog‘i joriy etilgan (Xitoy), harakatlanuvchi tarkibni kuzatish va transportni boshqarish jarayonlari kechikishlarni kamaytirish uchun avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari ishlab chiqilgan (Rossiya, AQSh), hamda tashish jarayonlarida xavfsizlik va samaradorlikni ta‘minlash uchun sun‘iy intellekt tatbiq etilgan (Yaponiya).

Jahonda tashishlarni tezkor boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: poyezdlar harakati, infratuzilma holati va yuk oqimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yig‘ish, saqlash va tahlil qilish uchun markazlashtirilgan platformalarni yaratish, poyezdlar harakati

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://illinois.edu/>, <https://www.mit.edu/>, <https://www.unimelb.edu.au/>, <https://www.tudelft.nl/en/>, <http://en.njtu.edu.cn/>, <https://ethz.ch/en.html>, <https://www.utokyo.ac.jp/en/>, <https://www.tsinghua.edu.cn/en/>, <https://www.pgups.ru/>, <https://www.tum.de/en/> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

grafigini optimallashtirish, harakatni bashorat qilish, yuklarni boshqarish va real vaqt rejimida muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun sun'iy intellektdan foydalanish, tashish jarayonlari to'g'risida doimiy monitoring va ma'lumotlarni yig'ish uchun temir yo'llar, vagonlar va signalizatsiya tizimlarida simsiz tarmoqlar datchiklari va qurilmalarini joriy etish, temir yo'l tizimlarini kiberhujumlardan himoya qilish va muhim ma'lumotlar kiberxavfsizligini kuchaytirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Temir yo'lda tashish jarayonlarini tezkor boshqarishni takomillashtirish nazariyasini ishlab chiqish bo'yicha jahondagi yirik tadqiqotchilar, jumladan, V.S. Klimanov, G.M. Groshev, L.P. Tulupov, B. Del Rio, B.A. Zavyalov, V.A. Buyanov, E.M. Tishkin, I.V. Xarlanovich, V.V. Sapozhnikov, V.M. Lisenkova, Yu.S. Xandqorova, N.D. Slobodyanyuk, E.A. Sotnikov, S.Yu. Eliseeva, A.C. Gershvald, E.S. Poddavashkina, A.N. Raxmangulov, Yu.V. Kupriyanovskaya, K. Boeckl, Shi-Van Lin, Mark Krouford, Stiven Mellor, S. Karmalkar, X. Patil, Sh. Patel, D. Pund, B. Quazi, Y. Ding, M. Jin, S. Li, D. Feng va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

O'zbekiston Respublikasida bir qator olimlar yuk poyezdlari harakatini tashkil etish, uchastkalarda vagonlar oqimini tashkil etishda tezkor rejalashtirish, tashishlarni boshqarishda temir yo'l avtomatika va telemexanikasining zamonaviy qurilmalarini rivojlantirish, tashish jarayonlarini avtomatlashtirish hisobiga temir yo'l transportini ishlatish ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, R.Z. Nurmuhamedov, K.T. Xudayberganov, N.M. Aripov, M.X. Rasulov, T.R. Nurmuhamedov, J.F. Kurbanov, Sh.M. Suyunbayev, M.N. Masharipov, S.K. Xudayberganov, U.N. Ibragimov, A.A. Svetashev, D.B. Butunov, Sh.X. Bo'riev, S.A. Abduqodirov va boshqalar bu sohada turli yillarda o'z tadqiqotlari asosida ijobiy natijalarga erishganlar.

Ushbu sohada yuqori ko'rsatkichlarga erishilgan bo'lsada, zamonaviy ma'lumotlar uzatish tarmog'iga asoslangan tashishlarni tezkor boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish texnologiyasi, shu jumladan harakatlanuvchi tarkibni avtomatik monitoring qilish tizimlarini ishlab chiqish texnologiyasi, tashishni boshqarish bo'yich qaror qabul qilishda foydalaniladigan ma'lumotlar sifatini baholash usullari yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur dissertatsiya ishida tashishlarni tezkor boshqarish tizimlarini takomillashtirish uchun uzoq masofalarda ishlovchi simsiz tarmoqlardan foydalanish, tashishlarni tezkor boshqarishni axborot bilan ta'minlashning yangi yondashuvi, smenali-sutkalik va joriy rejalashtirish jarayonlarini raqamlashtirish asosida mahalliy ishlarni boshqarish texnologiyasini takomillashtirish, yuklashni avtomatlashtirilgan rejalashtirishning imitatsion modelini ishlab chiqish, axborot-tahlil jarayonlarida simsiz texnologiyalarni qo'llash samaradorligini asoslash uchun ma'lumotlar sifatini baholashning imitatsion modelini ishlab chiqish, axborot-tahlil jarayonlarini raqamlashtirishni inobatga olib mahalliy ishlarni rejalashtirish faktor-grafi o'zgaruvchilari konfiguratsiyasini aniqlashning matematik modelini ishlab chiqish yechimlari taklif etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari Toshkent davlat transport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari

rejasiga kiritilgan IL-5321091554-sonli “Innovatsion konteyner platformasidan foydalangan holda, kengaytirilgan qatorda intermodal yuklarni yuklash muammosini hal qilish, shuningdek. yangi texnik va texnologik yechimlar” (2022-y.) mavzusidagi davlat granti hamda 6/23-sonli “Guliston shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish Bosh rejasini ishlab chiqish” (2023-y.) mavzusidagi xo‘jalik shartnoma doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi temir yo‘l transportida tashishlarni tezkor boshqarishning axborot-tahliliy jarayonlarini raqamlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

temir yo‘l transportida tezkor boshqarish tizimlarining hozirgi holati va takomillashtirish masalalarini o‘rganish;

temir yo‘l transportining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashishlarni tezkor boshqarish tizimlarini takomillashtirish uchun uzoq masofalarda ishlovchi simsiz tarmoqlarni qo‘llash doirasini asoslash;

tashishlarni tezkor boshqarishni axborot bilan ta‘minlashning ta‘minlashning ma‘lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkonini beruvchi raqamlashtirilgan yondashuvini ishlab chiqish va dinamik tuzilmali ma‘lumotlar bazasini loyihalash;

smenali-sutkalik va joriy rejalashtirish jarayonlarini raqamlashtirish asosida mahalliy ishlarni boshqarish texnologiyasini takomillashtirish;

optimal tavsiflarga ega bo‘lgan tashish resursini tanlashning parallel jarayonlarini hisobga olgan holda yuklashni avtomatlashtirilgan rejalashtirishning imitatsion modelini ishlab chiqish;

harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni monitoringi uchun uzoq masofalarda ishlovchi simsiz texnologiyaning infratuzilmasini yaratish bo‘yicha amaliy yechimlarni ishlab chiqish;

ma‘lumotlarning manbalardan mustaqil ravishda uzatilishini hisobga olgan holda simsiz texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini asoslash uchun ma‘lumotlar sifatini baholashning imitatsion modelini ishlab chiqish;

axborot-tahliliy jarayonlarni raqamlashtirishni inobatga olib mahalliy ishlarni rejalashtirishning matematik modelini ishlab chiqish;

harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik monitoring qilish tizimini ishlab chiqish talablarini aniqlash, shuningdek dasturiy ta‘minot ko‘rinishidagi instrumental vositalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida temir yo‘l transportida tashishlarning tezkor boshqarish tizimlari olingan.

Tadqiqot predmeti sifatida tashishlarni tezkor boshqarishning axborot-tahliliy jarayonlari olingan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tizimli tahlil, matematik va imitatsion modellashtirish, usullari, algoritmlar, graflar va ehtimollar nazariyasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

temir yo‘l transportining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qiyosiy tahlil usullari orqali tashishlarni tezkor boshqarish tizimlarini takomillashtirish uchun uzoq masofalarda ishlovchi simsiz tarmoqlarni qo‘llash doirasi asoslangan;

harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik monitoring qilish tizimi asosida simsiz tarmoq texnologiyasidan foydalangan holda tashishlarni tezkor boshqarishni axborot bilan ta'minlashning ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkonini beruvchi raqamlashtirilgan yondashuvi ishlab chiqilgan;

vagon modeli va yuklash arizalari ma'lumotlari bilan avtomatik ta'minlashni hisobga olgan holda smenali-sutkalik va joriy rejalashtirish jarayonlarini raqamlashtirish asosida mahalliy ishlarni boshqarish texnologiyasi bo'sh va yukli vagonlar balansini bevosita monitoring qilish orqali takomillashtirilgan;

optimal tavsiflarga ega bo'lgan tashish resursini tanlashning parallel jarayonlarini hisobga olib, Petri tarmog'i va Floyd-Uorshel algoritmi asosida yuklashni avtomatlashtirilgan tarzda rejalashtirishning imitatsion modeli HPSim simulyatori va Java daturlash tilidan foydalangan holda ishlab chiqilgan;

axborot-tahliliy jarayonlarda simsiz texnologiyalarni qo'llash samaradorligini asoslash uchun Bayes tarmog'i usulidan foydalanish orqali ma'lumotlar sifatini baholashning imitatsion modeli GeNie simulyatorida harakatlanuvchi tarkiblar haqidagi ma'lumotlarni uzatish texnologik jarayonlarining to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishini ta'minlagan holda ishlab chiqilgan;

vagon modeli va yuk jo'natish arizalarini o'zaro muvofiqlashtirishning axborot-tahliliy jarayonlarni raqamlashtirish talablarini inobatga olib maksimal ishonchlilik algoritmi asosida mahalliy ishlarni rejalashtirish faktor-grafi o'zgaruvchilari konfiguratsiyasini aniqlashning matematik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik monitoring qilish tizimi uchun moslashuvchan shakldagi axborot taqdim etishni hisobga olgan holda dinamik tuzilmali ma'lumotlar bazasi loyihalangan;

eksperimental tadqiqotlar asosida harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni monitoringi uchun uzoq masofalarda ishlaydigan simsiz texnologiyaning infratuzilmasini yaratish bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqilgan;

texnik qurilmalarni o'rnatish, tizimning tuzilmasi va ma'lumotlar oqimiga o'rnatilgan tavsiyalarni hisobga olgan holda harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik monitoring qilish tizimini loyihalash talablari aniqlangan;

vagonlarning joylashuvi va holatini (bo'sh/yukli) monitoringi uchun mo'ljallangan algoritmlar va dasturiy majmua ko'rinishidagi instrumental vositalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy asoslangan konsepsiyalar natijalarining kerakli darajada yaqinligi, harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik nazorat qilish tizimi (HTKANT) chiqish ma'lumotlari sifatini baholash matematik modellari natijalarining tajriba ma'lumotlari bilan muvofiqligi, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tashishlarni tezkor boshqarishning axborot-tahliliy jarayonlarini raqamlashtirish uchun ilmiy-nazariy asoslar, modellar va algoritmlar olinganligi bilan izohlangan, ularning qo'llanilishi boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi va

jarayonlarni avtomatik rejimda bajarish orqali harakatlanuvchi tarkibni ishlatish samaradorligini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati vagonlarning harakatini va holatini real vaqt rejimida kuzatish, shu orqali vagonlar parkini boshqarish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi vagonlarni avtomatik nazorat qiluvchi dasturiy modul ishlab chiqilganligi bilan izohlangan. Optimal yuklash resurslarini topish uchun dasturiy ta'minot transportning smena-sutkalik rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirishga hamda ishlab chiqilgan ma'lumotlar bazasi harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik nazorat qilish tizimini tadqiq etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Temir yo'l transporti tezkor boshqarish tizimlarining axborot-tahliliy jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik nazorat qilish tizimini qo'llash orqali tashishlarni tezkor boshqarishni axborot bilan ta'minlashning ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkonini beruvchi raqamlashtirilgan yondashuvi asosidagi texnologiya "O'zbekiston temir yo'llari" AJning Raqamlashtirish boshqarmasiga joriy etilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2023-yil 1-noyabrdagi 07/3573-23-sonli ma'lumotnomasi). Natijada transport jarayonida harakatlanuvchi tarkib va konteynerlardan maqbul foydalanish va tashishlarni yanada samaraliroq boshqarish imkoniyati paydo bo'lgan;

vagonlarni yuklash va tushirishni smenali-sutkalik va joriy rejalashtirishning avtomatlashtirilgan texnologiyasini o'z ichiga olgan, vagon modeli va yuk ortish buyurtmalari to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatik ta'minlashni hisobga oluvchi mahalliy ishlarni boshqarishning takomillashtirilgan texnologiyasi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Marketing va logistika boshqarmasiga joriy etilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2023-yil 1-noyabrdagi 07/3573-23-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mahalliy ish rejasining sifatini yaxshilash orqali yuk tashish uchun vagonlarni yanada samarali taqsimlash, tushirish uchun vagonlarni yetkazib berish va manyovr lokomotivlari ishini tashkil etish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 15 ta ilmiy-amaliy anjumanlar, shu jumladan 6 ta Scopus bazasidagi ilmiy anjumanda, 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 37 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan 3 ta xorijiy va 13 ta respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan, shunigdek 5 ta EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazasiga guvohnoma olingan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 192 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy ishning dolzarbligi va zarurligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilib, tadqiqot obyekti va predmeti tavsifi keltirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilib, uning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati asoslangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ilmiy tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi haqidagi dalolatnomlar, chop etilgan ilmiy ishlar va Dissertatsiya tuzilishiga oid ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Temir yo‘l transportida tezkor boshqarish tizimlarini takomillashtirishning hozirgi holati va istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida temir yo‘l transportida tashishni tezkor boshqarish tizimlarining rivojlanishi va hozirgi holati tadqiq va tahlil etilgan.

O‘zbekiston temir yo‘llarida mavjud tashishlarni tezkor boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (TTBAT) tahlilidan uning tezkorligini va samaradorligini cheklaydigan muhim kamchiliklar aniqlangan (1-rasm). Ushbu kamchiliklarga cheklangan integratsiya imkoniyati, real vaqt oralig‘idagi nazoratning sustligi, murakkab moslashuvchanlik va inson omiliga bog‘liqlik kiradi.



1-rasm. TTBAT tashish jarayoni modeli

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va tizimni takomillashtirish maqsadida tashishni tezkor boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish taklif etilgan.

Simsiz texnologiyalaridan foydalangan holda temir yo‘l transportida tashishlarni tezkor boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish ushbu sohani takomillashtirishdagi muhim qadamdir. Umuman olganda, temir yo‘l transportida tashishlarni tezkor boshqarish tizimlarida ma‘lumotlarni uzatishda simsiz texnologiyalaridan foydalanish tashish samaradorligi va xavfsizligini sezilarli darajada yaxshilaydi, shuningdek temir yo‘l transportidan foydalanish xarajatlarini kamaytiradi.


Tashishlarni tezkor boshqarishda simsiz texnologiyalarni joriy etish tashish jarayonining yangi darajadagi axborot modelini yaratishga qaratilgan. Ushbu bobda simsiz tarmoq asosida tashish jarayonining axborot modelini takomillashtirish yo‘nalishlari belgilangan.

Dissertatsiyada turli xil simsiz texnologiyalar tahlil qilingan va uning natijasida O‘zbekiston temir yo‘llarida harakatlanuvchi tarkiblarni nazorat qilish uchun LoRaWAN simsiz aloqa protokoli asosidagi tarmog‘ini qo‘llash samaradorligi asoslangan. LoRaWANning optimal tanlov bo‘lishining bir nechta asosiy sabablari bor: yuboriladigan xabarlar soniga cheklovlarning yo‘qligi; aloqa diapazonining kengligi; foydalanish diapazoni uchun litsenziya talab etmasligi; iqtisodiy samaradorligi. Shunday qilib, LoRaWAN “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda vagonlarni kuzatish va nazorat qilish uchun eng yaxshi tanlov hisoblanadi. Ushbu texnologiya ma’lumotlarning ishonchli va samarali uzatilishini ta’minlash uchun barcha zarur xususiyatlarga ega, bu esa harakatni tezkor boshqarishni yaxshilashga yordam beradi.

Tashish jarayonining axborot modelini takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda tashishlarni tezkor boshqarish uchun yuqori sifatli ma’lumotlarni taqdim etadigan harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik nazorat qilish tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“Harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik nazorat qilish tizimining ishlashini tadqiq etish”** bobida joriy etish taklif etilayotgan harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik nazorat qilish tizimining tizimli tahlili o‘tkazilgan.


Harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik nazorat qilish tizimining (HTKANT) asosiy maqsadi temir yo‘l transportida tashishlarni tezkor boshqarishni real vaqt rejimida axborot bilan ta’minlashdan iborat. HTKANT elementlariga quyidagilar kiradi: poyezd, vagon, lokomotiv, konteyner, geolokatsiya datchiklari, vagon holati datchiklari, uzellar va tarmoq korxonalari. Tizimning tuzilishi tashish jarayonining modellariga asoslanadi (2-rasm). Tizim poyezd, lokomotiv, vagon va konteyner modellaridan iborat.



2-rasm. Harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik nazorat qilish tizimining tuzilishi

Tizimning IDEF0 belgisiga asoslangan funksional modeli ishlab chiqilgan. Tizimdagi axborot oqimlarini batafsil ko'rsatish uchun tizim qismlarga bo'lingan. HTKANT faoliyatini tafsirlashning ushbu usuli tizimni joriy etishda aniq harakat qilishga imkon beradi. Kirish va chiqish ma'lumotlari aniq ko'rsatilgan bo'lib, boshqa tizimlar o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olish imkonini beradi.


Joylashuv va holat (bo'sh/yukli) datchiklaridan keladigan vagonlarning ma'lumotlarini qayta ishlash algoritmlari ishlab chiqilgan (3-rasm). Konteyner ma'lumotlarini qayta ishlash algoritmi faqat joylashuv datchikidan kelgan ma'lumotlarni qayta ishlash asosida ishlab chiqilgan. Lokomotiv poyezd bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, lokomotivlar va poyezdlar ma'lumotlarini qayta ishlash blok sxemasi umumiy shaklda taqdim etilgan. Ushbu bobda taqdim etilgan ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlari mazkur tizimni amaliyotda joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



3-rasm. Vagon ma'lumotlarini qayta ishlash algoritmi

Lokomotivlar va poyezdlarning harakatlanish tarixi bir-biriga bog'langan. Poyezdning joylashuvi haqidagi ma'lumot lokomotivga bog'liq. Lokomotiv datchiklari lokomotivning joylashuvi haqidagi ma'lumotlarni uzatadi, agar bu lokomotiv poyezdga bog'langan bo'lsa, u holda joylashuv ma'lumotlari poyezd uchun umumiy bo'ladi (4-rasm).

Ma'lumotlar bazasi strukturasi axborot tizimlari uchun asos hisoblanadi. Samarali tuzilmani qurish uchun ma'lum qoidalarni hisobga olish kerak. Ma'lumotlar bazasini yaratish uchun turli xil belgilar va usullar mavjud. Ma'lumotlar bazasi strukturasi loyihalash uchun ER-diagrammasi metodidan foydalanilgan.



4-rasm. Lokomotivlar va poyezdlar ma'lumotlarini qayta ishlash algoritmi

Tizim tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar ikki guruhga bo'lingan. Birinchi guruhga tizimning o'zidan kelib chiqadigan ma'lumotlar kiradi. Ma'lumotlarning ikkinchi guruhi yuk tashishlarni tezkor boshqarish avtomatlashtirilgan milliy axborot tizimidan (YTTBAMAT) import qilinadi. Natijada to'liq bo'lgan chiqish ma'lumoti shakli paydo bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, YTTBAMATdan ma'lumotlarni import qilishning imkoniyati yo'qligi tizimning minimal ishlashiga ta'sir qilmaydi.


Elektron xaritada obyektlarni tasvirlanishi avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Kerak bo'lgan ma'lumotlar foydalanuvchi so'rovlari asosida chiqariladi.

Harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarni avtomatik nazorat qilish tizimining ma'lumotlar bazasi tuzilmasi va chiquvchi ma'lumotlar shakllari mazkur tizimning ishlash texnologiyasi haqida yanada aniq tasavvur beradi. Ma'lumotlar bazasi ER-diagrammasi yordamida PostgreSQL tilida dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan. Ushbu dasturiy ta'minotni tizimni amaliyotga joriy etishda ishlatish mumkin. Olingan ma'lumotlar tashishlarni tashkil etish jarayonida qaror qabul qiluvchilar uchun asosiy ma'lumot sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Mahalliy ishlarni boshqarish tizimining axborot-tahliliy jarayonlarini raqamlashtirish”** nomli uchinchi bobida smena-sutkalik va joriy rejalashtirish tizimlari jarayonlarini raqamlashtirish masalalari tadqiq etilgan, Petri


tarmog‘i usuli yordamida yuklashni avtomatlashtirilgan smena-sutkalik rejalashtirish imitatsiya modeli ishlab chiqilgan, Floyd-Uorshel algoritmi yordamida bo‘sh vagonlar joylashgan bekatlarga eng qisqa yo‘llarni aniqlash muammosi yechilgan va dasturiy ta‘minot ishlab chiqilgan.

Smena-sutkalik va joriy rejalashtirish tizimlarini o‘z ichiga oluvchi mahalliy ishlarning avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini (MIABT) ishlab chiqish taklif etilgan. IDEF0, IDEF1 va DFD belgilari asosida yuklash va tushirishni smena-sutkalik rejalashtirishning avtomatlashtirilgan holdagi ishining funksional modeli ishlab chiqilgan (5-rasm). Katta funksional bloklar va ma‘lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini aniqroq ko‘rsatish uchun ochib chiqilgan.



5-rasm. Smena-sutkalik yuklash va tushirishni rejalashtirishning funksional modeli

Joriy rejalashtirishning avtomatlashtirilgan funksional modeli ishlab chiqilgan (6-rasm). Normativ-huquqiy ma‘lumotlar va smenali-sutkalik rejalar joriy rejalashtirishning asosini tashkil etadi. Vagon modeliga asoslanib, MIABT smena-sutkalik rejalariga muvofiq, boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchilar uchun rejaning bir nechta variantlarini tayyorlaydi.



6-rasm. Mahalliy ishlarni joriy rejalashtirishning funksional modeli (IDEF0)


Petri tarmog‘i yordamida yaratilgan simulyatsiya modeli harakatlar ketma-ketligi va pozitsiyalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik haqida aniq tasavvur beradi (7-rasm). Simulyatsiya modeli HPSim dasturi yordamida ishlab chiqilgan. Petri tarmog‘i orqali tizimning to‘g‘ri ishlashi tekshirilgan. Tarmoq orqali yorliqlarning harakatlanishini simulyatsiya qilish tizimning zaif tomonlarini aniqlashga imkon berdi. Yuklashni rejalashtirish avtomatlashtirilgan rejimda amalga oshirilganligi sababli Petri tarmog‘i usuli ushbu turdagi jarayonlarning ishlashini tekshirishda qo‘l keladi.

5-rasmdagi Petri tarmog‘i uchun kengaytirilgan kirish va chiqish funksiyalari quyidagilardir:

$$M = (P, T, I, O, \mu), \quad (1)$$

$$P = (p_0, p_1, p_2, p_3, p_4, p_5, p_6, p_7, p_8, p_9, p_{10}, p_{11}, p_{12}, p_{13}, p_{14}, p_{15}, p_{16}, p_{17}), \quad (2)$$

$$T = \begin{pmatrix} t_0, t_1, t_2, t_3, t_4, t_5, t_6, t_7, t_8, t_9, t_{10}, t_{11}, \\ t_{12}, t_{13}, t_{14}, t_{15}, t_{16}, t_{17}, t_{18}, t_{19}, t_{20} \end{pmatrix}. \quad (3)$$



7-rasm. Smena-sutkalik yuklashni rejalashtirishning Petri tarmog‘i

Yuklashni rejalashtirishda MTU bekatlar oraliq'idagi eng qisqa masofani aniqlash uchun Floyd- Uorshel algoritmidan foydalanilgan.

Har bir cho'qqisi 1 dan $|V|$ gacha raqamlangan $G = (V, E)$ grafi berilgan. D o'zaro bog'langan matritsasini hosil qilamiz. Bu matritsa $|V| \times |V|$ o'lchamiga ega bo'lib uning har bir D_{ij} elementiga i va j cho'qqilarini birlashtiruvchi, w yoy og'irligi biriktirilgan. G grafining yo'nalishi tufayli D matritsasi assimetrik bo'lishi mumkinligini inobatga olish lozim bo'ladi.

$$D_{ij} = \begin{cases} w(i, j), & \text{agar } (i, j) \in E \\ \infty, & \text{aks holda} \end{cases} \quad (4)$$

$$D_{ii} = 0, \forall i. \quad (5)$$

i va j cho'qqilarining har bir jufti uchun biz D_{ij} masofasini k oraliq cho'qqilari orqali qayta hisoblaymiz, agar bu mavjud D_{ij} qiymatini kamaytirsa:

$$D_{ij}^{k+1} = \min(D_{ij}^k, D_{ik}^k + D_{kj}^k). \quad (6)$$

teng bo'ladi.

Ushbu shartlar qanoatlantirilgan hollarda:

1. Masofalarning manfiy emasligi:

$$D_{ij}^k \geq 0, \forall i, j, k. \quad (7)$$

2. Sikllarning manfiy emasligi:

$$D_{ij}^k + D_{ji}^k \geq 0, \forall i, j, k. \quad (8)$$

3. Yoylarning faqat musbat qiymatini olish:

$$w(i, j) \geq 0, \forall (i, j) \in E. \quad (9)$$


Birinchidan, bekatlar orasidagi masofalar to'plamini yaratish uchun o'zaro bog'lanishlar jadvali tuziladi. Ushbu ma'lumotlar to'plami keyingi hisob-kitoblar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bekatlar orasidagi masofalar to'plami qidiruv parametrlari (boshlang'ich va oxirgi bekat) bilan hisoblashning asosiy usuliga o'tkaziladi. Birinchi bosqichda bekatlar orasidagi eng qisqa masofalar aniqlanadi, keyin bekatlar orasidagi kerakli masofa hisoblanadi.

Algoritmnı amalga oshirish uchun Java tilida dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan. Ushbu dastur yordamida bo'sh vagonlar joylashgan bekatlargacha bo'lgan eng qisqa yo'llarni aniqlash imkoniyati yaratilgan.

Dissertatsiyaning **“Tashishalarni tezkor boshqarish jarayonlarini raqamlashtirishni amaliy amalga oshirish va asoslash”** nomli to'rtinchi bobida LoRaWAN simsiz tarmog'i infratuzilmasini yaratish bo'yicha texnologik yechimlar ishlab chiqildi, harakatlanuvchi tarkibini kuzatish uchun LoRaWAN simsiz tarmog'idan foydalangan holda ishchi model yaratilgan, simsiz texnologiyalarni qo'llash samaradorligini asoslash uchun ma'lumotlar sifati baholangan, faktor-graf usuli asosida mahalliy ishlarni rejalashtirishning chiqish ma'lumotlari sifatini baholashning matematik modeli ishlab chiqilgan.

LoRaWAN simsiz tarmoq infratuzilmasini qo'llash uchun turli komponentlar bo'yicha tadqiqotlar va sinovlar o'tkazildi. Ushbu tadqiqotlar natijasida xususiy tarmoqni yaratish uchun muayyan yechimlar tanlandi. Tarmoq serverining ishlashini ta'minlash uchun Actility kompaniyasining serveri ishlatilgan, u tajribaviy tekshiruvlardan muvaffaqiyatli o'tgan. Aloqa va ma'lumotlarni datchiklardan tarmoq serveriga uzatishni ta'minlash uchun Kerlink va Browan ishlab chiqaruvchilarining

shlyuzlarini qo‘llash bo‘yicha qaror qabul qilingan (8-rasm). Ushbu qurilmalar yuqori samaradorlik va ishonchlilik kabi texnik xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Vagonlarning joylashuvi, harorati va holati (bo‘sh yoki yukli) kabi turli parametrlarini kuzatish uchun quyidagi qurilmalar tanlangan: joylashuv uchun Abeeway Compact Tracker, haroratni kuzatish uchun Sentries RS1xx, vagonlar holatini kuzatish uchun Netvox R718J2 (9-rasm). Ushbu qurilmalar ba elementlar real vaqt rejimida harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarning holati to‘g‘risida aniq va ishonchli ma‘lumotlarni olishga imkon beradi.



8-rasm. LoRaWAN tarmog‘ining shlyuzlari



9-rasm. LoRaWAN tarmog‘ining datchiklari

LoRaWAN tarmog‘i asosida vagonlarning harakatini kuzatish uchun ishlab chiqilgan ishchi model ushbu texnologiyani sinovdan o‘tkazishda muhim bosqichni tashkil etadi. Ushbu model katta loyihalarni ishlab chiqish uchun juda foydali bo‘lgan LoRaWAN tarmog‘i faoliyatining mumkin bo‘lgan muammolari va xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi. LoRaWAN tarmog‘i platformalari tomonidan taqdim etilgan yaxshi sharoitlar tufayli ishchi modelni ishlab chiqish katta qiyinchiliklar tug‘dirmadi. Ishchi model asosida harakatlanuvchi tarkibni kuzatish tizimlarini joriy etish yanada samarali bo‘ladi.

Ishchi modelni yaratish uchun quyidagi bosqichlar bajarildi:

1. Tarmoq serverida ro‘yxatdan o‘tish;
2. Shlyuzni tarmoq serveriga ulash;
3. Datchiklarni tarmoq serveriga ulash;
4. Ma‘lumotlar tasvirini chiqarish va tahlil qilish uchun uchinchi tomon platformasidan foydalanish.

Temir yo‘l harakatlanuvchi tarkibini kuzatishda taklif etilayotgan texnologiyaning afzalliklarini asoslash uchun ma‘lumotlar sifati mezonidan

foydalanish tavsiya etilgan. Bayes tarmog‘i usuli yakuniy natijalar ma’lumotlarining sifatini aniqlash bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ishlatilgan, buning uchun quyidagi vazifalar bajarilgan:

1. Temir yo‘l harakatlanuvchi tarkibni nazorat qilish tizimlarining texnologik sxemalari taqdim etilgan.


2. Bayes tarmog‘i tuzilgan.

3. Hodisalarning apriori ehtimoli aniqlangan.

4. Alohida hodisalar ehtimolliklari hisoblangan.

5. Tizimlarning chiqish ma’lumot sifatleri taqqoslangan.

Harakatlanuvchi tarkib va konteynerlarning avtomatik nazorat qilish tizimi (HTKANT) harakatlanuvchi tarkibi va konteynerlarning joylashuvini, shuningdek, vagonlarning holatini (bo‘sh yoki yuklangan) nazorat qiladi. Kuzatuv obyektlariga o‘rnatilgan datchiklar ma’lumotni shlyuzlarga yuboradi, ular o‘z navbatida bekatlarda va poyezd lokomotivlarida o‘rnatilishi kerak. Shlyuzlar ma’lumotni tarmoq serveriga yo‘naltiradi (LoRaWAN). Tarmoq serveri ma’lumotni qayta ishlagandan so‘ng HTKANT serveriga yuboradi (10-rasm).



10-rasm. HTKANTning ishlash texnologik diagrammasi

Ikki tizimdagi ma’lumotlar sifatini taqqoslash bir xil sharoitlarda amalga oshiriladi. Terma poyezd oraliq bekatlarda muayyan harakatlarni bajargan holda harakatlanadi.

Tashishlarni tezkor boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (TTBAT) uchun Bayes tarmog‘i A' , B' va S' o‘zgaruvchilarning uchta to‘plamidan iborat. To‘plam A' poyezdlar bilan bajariladigan operatsiyalarni o‘z ichiga oladi, B' to‘plami poyezd operatsiyalari to‘g‘risida xabar yuborishni va S' to‘plamiga ma’lumotlar sifatini baholashda ishlatiladigan nazorat hodisalari kiradi.

$$A' = \{A'_1, A'_2, A'_3, A'_4, A'_5, A'_6\}, \quad (10)$$

$$B' = \{B'_1, B'_2, B'_3, B'_4, B'_5, B'_6\}, \quad (11)$$

$$S' = \{S'_1, S'_2, S'_3\}. \quad (12)$$

HTKANT tizimi uchun Bayes tarmog‘i ham A'' , B'' va S'' o‘zgaruvchilarning uchta to‘plamidan iborat, chunki bir xil amallar o‘rganilmoqda. A'' to‘plami poyezd operatsiyalarini o‘z ichiga oladi, B'' to‘plam datchiklardan ma’lumot yuborishni va S'' to‘plamiga ma’lumotlar sifatini baholashda ishlatiladigan nazorat hodisalari kiradi.

$$A'' = \{A''_1, A''_2, A''_3, A''_4, A''_5, A''_6\}, \quad (13)$$

$$B'' = \{B''_1, B''_2, B''_3, B''_4, B''_5, B''_6\}, \quad (14)$$

$$S'' = \{S''_1, S''_2, S''_3\}. \quad (15)$$

Ma'lumotlar sifatini taqqoslash uchun nazorat hodisalari sifatida S' va S'' to'plamlari o'zgaruvchilari xizmat qiladi.

Ehtimolliklarni hisoblash shartlarini belgilaymiz. Poyezdlar bilan barcha harakatlar bajarilganidan so'ng vagonlarning joylashuvi va holati to'g'risida ehtimolliklar aniqlanishi kerak.


Berilgan sharoitlarda S' to'plamining o'zgaruvchilari ehtimoli quyidagicha aniqlanadi:

$$P(S'_1|A'_1, A'_2, A'_3, A'_4, A'_5, A'_6) = \frac{P(S'_1=1, A'_1=1, A'_2=1, A'_3=1, A'_4=1, A'_5=1, A'_6=1)}{P(A'_1=1, A'_2=1, A'_3=1, A'_4=1, A'_5=1, A'_6=1)}, \quad (16)$$

$$P(S'_2|A'_1, A'_2, A'_3, A'_4, A'_5, A'_6) = \frac{P(S'_2=1, A'_1=1, A'_2=1, A'_3=1, A'_4=1, A'_5=1, A'_6=1)}{P(A'_1=1, A'_2=1, A'_3=1, A'_4=1, A'_5=1, A'_6=1)}, \quad (17)$$

$$P(S'_3|A'_1, A'_2, A'_3, A'_4, A'_5, A'_6) = \frac{P(S'_3=1, A'_1=1, A'_2=1, A'_3=1, A'_4=1, A'_5=1, A'_6=1)}{P(A'_1=1, A'_2=1, A'_3=1, A'_4=1, A'_5=1, A'_6=1)}. \quad (18)$$

GeNie dasturidan foydalanib, berilgan ($A'_1 = 1, A'_2 = 1, A'_3 = 1, A'_4 = 1, A'_5 = 1, A'_6 = 1$) shartlarga muvofiq TTBAT barcha o'zgaruvchilarning ehtimolini aniqlaymiz (11-rasm).



11-rasm. Berilgan shartlarda TTBATning Bayes tarmog'idagi o'zgaruvchilarning ehtimoli


Berilgan sharoitlarda S'' to'plamining o'zgaruvchilari ehtimoli quyidagicha aniqlanadi:

$$P(S''_1 | A''_2, A''_5, A''_6) = \frac{P(S''_1=1, A''_2=1, A''_5=1, A''_6=1)}{P(A''_2, A''_5, A''_6)}, \quad (19)$$

$$P(S''_2 | A''_2, A''_5, A''_6) = \frac{P(S''_2=1, A''_2=1, A''_5=1, A''_6=1)}{P(A''_2, A''_5, A''_6)}, \quad (20)$$

$$P(S''_3 | A''_4) = \frac{P(S''_3=1, A''_4=1)}{P(A''_4)}. \quad (21)$$

GeNie dasturidan foydalanib, HTKANTda (12-rasm) berilgan ($A''_1 = 1, A''_2 = 1, A''_3 = 1, A''_4 = 1, A''_5 = 1, A''_6 = 1$) shartlarga muvofiq o'zgaruv-chilarning ehtimolini aniqlaymiz.



12-rasm. Berilgan shartlarda HTKANTda Bayes tarmog'idagi o'zgaruvchilarning ehtimoli

Natijalarni taqdim etish qulayligi uchun biz qo'shimcha o'zgaruvchilardan foydalanamiz. Belgilangan shartlar bo'yicha nazorat o'zgaruvchilari Θ qiymatini oladi. TTBAT va HTKANT uchun ushbu o'zgaruvchilarni quyidagicha aniqlaymiz:

$$\Theta'_1 = P(S'_1 | A'_1, A'_2, A'_3, A'_4, A'_5, A'_6), \quad (22)$$

$$\Theta'_2 = P(S'_2 | A'_1, A'_2, A'_3, A'_4, A'_5, A'_6), \quad (23)$$

$$\Theta'_3 = P(S'_3 | A'_1, A'_2, A'_3, A'_4, A'_5, A'_6), \quad (24)$$

$$\Theta''_1 = P(S''_1 | A''_2, A''_5, A''_6), \quad (25)$$

$$\Theta''_2 = P(S''_2 | A''_2, A''_5, A''_6), \quad (26)$$

$$\Theta''_3 = P(S''_3 | A''_4). \quad (27)$$

Nazorat o'zgaruvchilarning ehtimoli

T/r	Hodisalar	TTBAT	HTKANT
1	2 ta vagon C bekatda joylashgan	$\theta'_1 = 0,73$	$\theta''_1 = 0,9$
2	Uzilgan vagonlar yuklangan holatda	$\theta'_2 = 0,66$	$\theta''_2 = 0,9$
3	50 ta vagon P bekatda joylashgan	$\theta'_3 = 0,59$	$\theta''_3 = 0,9$

Nazorat o'zgaruvchilaridan olingan ma'lumotlar sifatini taqqoslash natijasida biz HTKANT foydasiga sezilarli ustunlikni ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

Xabarlarni yuborish bo'yicha hodisalarga alohida e'tibor berish kerak. Bunda poyezdlar bilan amalga oshirilgan harakatlar to'g'risida o'z vaqtida va ishonchli ma'lumot berish muhim jarayon hisoblanadi. Ikkala tizimda ham xabarlarni yuborish hodisalarining ehtimollik natijalarini tahlil qilaylik. Asosiy e'tibor harakatlanuvchi tarkibning joylashuvi to'g'risida ma'lumot beradigan xabarlarga qaratilishi kerak. Biz aynan shu xabarlarni tahlil qilamiz.

TTBAT uchun μ' va HTKANT uchun μ'' berilgan shartlar bo'yicha xabarlarni yuborish hodisalari ehtimolini quyidagicha belgilaymiz:

$$\mu'_1 = P(B'_1 | A'_1, A'_2, A'_3, A'_4, A'_5, A'_6), \quad (28)$$

$$\mu'_2 = P(B'_2 | A'_1, A'_2, A'_3, A'_4, A'_5, A'_6), \quad (29)$$

$$\mu'_3 = P(B'_3 | A'_1, A'_2, A'_3, A'_4, A'_5, A'_6), \quad (30)$$

$$\mu'_4 = P(B'_4 | A'_1, A'_2, A'_3, A'_4, A'_5, A'_6) \quad (31)$$

$$\mu''_1 = P(B'_1 | A'_1), \quad (32)$$

$$\mu''_2 = P(B'_2 | A'_2), \quad (33)$$

$$\mu''_3 = P(B'_3 | A'_3), \quad (34)$$

$$\mu''_4 = P(B'_4 | A'_4). \quad (35)$$

Hisoblash natijalariga asoslanib, μ'_i qiymatlarini olamiz va ularni bir-biri bilan taqqoslaymiz. O'zaro aloqalar sonining ko'payishi bilan xabarlarni o'z vaqtida yuborish ehtimoli kamayib bormoqda. Xabarni o'z vaqtida yubormaslik esa ma'lumotlar sifatini pasaytiradi:

$$\mu'_1 > \mu'_2 > \mu'_3 > \mu'_4. \quad (36)$$

Hisoblash natijalariga asoslanib, μ''_i qiymatlarini olamiz va ularni bir-biri bilan taqqoslaymiz. Yuborilgan ma'lumotlar o'rtasida aloqa yo'qligi sababli, vagonning stantsiyada bo'lganligi to'g'risida xabar yuborish ehtimoli vagonlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishga bog'liq. Oqibatda, natijalar barqaror bo'ladi:

$$\mu''_1 = \mu''_2 = \mu''_3 = \mu''_4. \quad (37)$$

HTKANT inson omilini, shu jumladan ma'lumotlarning buzilishi bo'yicha subyektiv aralashuvni istisno qiladi va shu bilan chiqish ma'lumotlari sifatini oshiradi. Datchiklarning real vaqt rejimidagi mustaqil xabarlar vagonlarning joylashuvi va holatini aniqroq ko'rsatadi. Yuqori sifatli chiqish ma'lumotlari harakat tarkibidan samarali foydalanishga yordam beradi va poyezdlar harakatini tashkil etishda qabul

